

Turizm Sohasida Geoaxborot Tizimlarining Qo‘Llanilishi

Ernazarov Alisher Ergashevich

Iskandarov Quddus Jamshed O‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Geografik axborot tizimlari (GIS) turizm sohasida ajralmas vosita bo‘lib, ushbu sohani optimallashtirish va rivojlantirish uchun faol foydalaniladi. Asosan, turizmda GISdan foydalanish sayyohlarga qulaylik va samaradorlikni ta‘minlaydi, shuningdek, turizm xizmatlarini rejalashtirish, boshqarish va marketingni yaxshilashga yordam beradi.

Turizmda GISdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri interaktiv xaritalar va navigatsiya tizimlarini yaratish imkoniyatidir. Sayyohlar notanish shahar yoki mamlakat bo‘ylab osongina sayohat qilishlari, diqqatga sazovor joylar, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa diqqatga sazovor joylarni topishlari va sayohat yo‘nalishlarini rejalashtirishlari mumkin. Bu sayyohlarning vaqtini va kuchini tejab, harakatlanish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Bundan tashqari, GIS turizm talabini tahlil qilish va prognoz qilish uchun ishlatiladi. Ular turizm infratuzilmasi, iqlim sharoiti, madaniy va tabiiy resurslar haqida turli ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash va qayta ishlash imkonini beradi. Olingan ma‘lumotlar mashhur turistik yo‘nalishlarni aniqlash, talabning mavsumiyligini aniqlash, uning o‘zgarishini bashorat qilish va taklifni mos ravishda moslashtirish imkonini beradi. Bu sayyohlik kompaniyalariga o‘z xizmatlarini yanada samarali joylashtirish va ilgari surish, shuningdek, taklif geografiyasini kengaytirishga yordam beradi.

Oxirgi bir necha o‘n yillardan buyon insoniyat axborot suronini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib, inson faoliyatining ko‘plab sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda kartograflar ko‘plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish mobaynida topografik, turli mavzuli geografik kartalar va atlaslarni tuzish, aero- va kosmik tasvirlarni deshifrovka qilish, dalada o‘lchash natijalarini qayta ishlash va kompyuter tizimlarida ma‘lumotlarni to‘plash bo‘yicha boy tajribaga egalar.

Ma‘lumotlarning ko‘plab turlarini vaqt o‘tishi bilan tez-tez o‘zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog‘ozli kartadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko‘rsatishni faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Shu o‘rinda zamonaviy GIS – bu ko‘p miqdordagi grafikli va mavzuli ma‘lumotlar bazasiga ega bo‘lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega bo‘lgan modeli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma‘lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli xulosalar chiqarish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi.

Shunday qilib, GAT bevosita ma‘lumotlar bilan fazoviy nuqtalarni bir-biriga bog‘lagan holda to‘plash, saqlash, tahlil qilish va tasvirlashni ta‘minlaydigan tizimdir. Shu bois, bunda tasvirlangan ma‘lumotlar tushunarli va tabiiy hisoblanadi. Bu yerdagi ma‘lumotlar atributli hisoblanadi, ya‘ni har bir obyekt o‘zining atributlari ega bo‘ladi, boshqacha qilib aytganda, ma‘lumotlar qatlam-qatlam beriladi.

Atributli ma'lumotlarni tasvirlashni quyidagi yo'llari mavjud: maxsus datchiklardan olinadigan sonli ma'lumotlar, ma'lumotlar bazasidagi jadvallar, fotosur'atlar, videotasvirlar, audio ma'lumotlari. Demak, mazmunan GIS ko'rsatilgan geografik muhitda obyektlarning ma'nosini va unga mansub raqamlarni bog'lay oladi. Bu esa ushbu texnologiyani turizmda qo'llashda asos bo'ladi va yuqori natijalarga olib keladi.

Google Maps – kartogfarik bepul xizmat turiga asoslanib yaratilgan dasturiy ilovalar to'plami bo'lib, 2005-yilda *Google* tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu servisdan planetamizning sun'iy yo'ldoshdan olingan kadrlari va xaritasi taqdim etilgan. Planetamizning ko'p qismi uchun ushbu 250-500 metrdan olingan aerofotosuratlar ham keltirilgan. Undagi obyektlarni har xil burchak ostida ko'rish imkoni ham mavjud.

Ushbu servislarda yordamida avtomobil yo'llari xaritasi, undan shaharlararo marshrutlarni qidirish imkoni va biznes ma'lumotnomalar ham birlashtirilgan. Marshrutni qidirish servisdan foydalanish uchun “Проложить маршрут” xatcho'piga o'tib, quyidagi formatda manzillarni kirish lozim: “Mamlakat, Shahar, ko'cha, uy”.

2015-yildan boshlab esa qo'shimcha “Your Time Line” funksiyasi kiritildi, u orqali o'tilgan marshrutlarning tarixini xotirada saqlash mumkin bo'ldi. Bundan tashqari “Google Street View” funksiyasi orqali ko'chalar bo'yicha ham sayyohat qilish imkoni paydo bo'ldi. 2012-yilda unda 35 ta mamlakatning 3000 ta shahri ushbu tizimda mavjud bo'lgan. Google Maps API ilovalari orqali Google Maps tizimidagi istalgan xaritani turistik kompaniyaning veb-saytida joylashtirish mumkin va keyinchalik JavaScript yoki ActionScript dasturiy ilovalar yordamida ushbu xaritalarni veb-saytning o'zida boshqarish mumkin, masalan ularda xaritani kichraytirish yoki kattalashtirish, manzillarda maxsus belgilarni joylashtirish kabi funksiyalarni kiritish mumkin. Ushbu texnologiyalarni Yandex.ru portalining “Яндекс Карты” servisdan ham ko'rish mumkin. Unda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- ✓ Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Turkiya mamlakatlari katta shaharlari xaritasini ko'rish;
- ✓ istalgan shaharning sun'iy yo'ldoshdan olingan fotosuratini ko'rish;
- ✓ istalgan geografik obyekt yoki tashkilotni qidirish va unga mansub ma'lumotni olish;
- ✓ avtomashina uchun marshrutni tanlash;
- ✓ yo'llardagi tirbandliklarni aniqlash;
- ✓ ko'chalarning panoramasini ko'rish;
- ✓ “API Яндекс карт” ilovalari orqali xaritani turistik kompaniyaning veb-saytida joylashtirish;
- ✓ masofalarni o'lchash va boshqalar.

Turizmda GISni qo'llashning boshqa muhim jihatlari turizm resurslarini boshqarish va ekoturizmni rivojlantirishdir. GIS milliy bog'lar, qo'riqxonalar yoki tarixiy joylar kabi turistik ob'ektlardan foydalanishni optimallashtirishi mumkin. Bu turizmning ekotizimlarga salbiy ta'sirini minimallashtirish, tabiiy va madaniy qadriyatlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash va turistik mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, turizm sohasida geografik axborot tizimlaridan foydalanish ushbu sohani optimallashtirish va rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar va vositalarning ajralmas qismi hisoblanadi. GISdan foydalanish turistlar uchun qulaylik, boshqaruv va marketing samaradorligini ta'minlaydi, tabiiy va madaniy resurslarni saqlashga yordam beradi. GIS tufayli turizm industriyasi taklif etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga intiladi, bu esa sayohatni yanada qulay va unutilmas qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suyunova Hilola Nizom qizi “Связывание материалов дистанционного зондирования с географической информационной системой” GOLDEN BRAIN” ISSN: 2181-4120 1-JIM | 16-son | 2023 yil
2. E. Safarov, I. Musaev. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2012. Tafakkur.-184. Gambling.
3. T.X.Boltayev, Q.Rahmonov, O.M.Akbarov GEOINFORMATSIYA TIZIMINING ILMIY ASOSLARI O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2019
4. Информационные технологии в экономике и управлении: учебник для академического бакалавриата / В. В. Трофимов [и др.]; под редакцией В. В. Трофимова. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2018. — 482 с. — (Бакалавр. Академический курс). — ISBN 978-5-534-03785-2.—Текст: электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/412540> (дата обращения: 13.09.2020).
5. Ernazarov A.E. Specific features of training. International Journal on Integrated Education. DOI: <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i5.375>. Volume 3, Issue V, May 2020. pp.30-34.
6. Ernazarov A.E. Clarification of the purpose and design of the training sessions. World Scientific News, Scientific Publishing House „DARWIN». WSN 80 (2017) 101-115.
7. Ernazarov A.E.Features of defining goals and objectives in training. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>. 15 April 2021. 444-448.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Geografik_axborot_tizimi
9. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4934>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_tizimi